

## SHO'ROJLAR DAVRIDA GAZETA-PUBLITSISTIK USLUBI: SOTSIOLINGVISTIK YONDASHUV

Mukaddas Israil,

*filologiya fanlari nomzodi, professor. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Annotatsiya. Gazeta tilining tarixiy taraqqiyoti borasida olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, turli davrda til vositalarini qo'llashning o'ziga xos jihatlaridan biri, ularning tizimli tasnifi hamda ekstralolingvistik faktorlarni o'zida mujassam qilganligidadir. Gazeta matnini diaxronik tahliliga murojaat qilish orqali gazetaning muhim jihatlari bo'lgan standart va ekspressiyani doimo "ijtimoiy baho" sifatida qaralishini kuzatishimiz mumkin. Sho'rolar davrda gazeta-publitsistik uslubi aniq xususiyatlarga ega bo'lgan, bu xususiyatlar mazkur davrning masifikasiy va madaniy konteksti bilan chambarchas bog'liq edi. Sho'rolap davrda gazeta-publitsistik uslubini sotsiolingvistik jihatdan tadqiq etish o'sha davr siyosatining gazeta tiliga va uslubiga tasirini, hukmron rus tilining ozbek tili va uslubiga tasirini, shu bilan birga, gazeta leksikasining yangi ijtimoiy-siyosiy terminlar hisobiga boyishini korishga va tahlil qilishga imkon beradi.*

*Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, gazeta-publitsistik uslubi, ijtimoiy-siyosiy vogelik, mediamatn, ijtimoiy-siyosiy terminlar, o'zbek gazetasi tili va uslubi, maqola, bosma media, gazeta matni.*

### ГАЗЕТНО-ПУБЛИЦИСТИЧЕСКИЙ СТИЛЬ В ПЕРИОД СОВЕТОВ: СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Мукаддас ИСРАИЛ,

*кандидат филологических наук, профессор. Узбекский государственный университет  
Узбекистана*

*Аннотация. Согласно результатам исследования исторического развития газетного языка, одним из отличительных аспектов использования языковых средств в разные периоды является их системная классификация, а также включение экстралингвистических факторов. Обращаясь к диахроническому анализу газетного текста, мы можем наблюдать, что стандарт и экспрессия, которые являются важными аспектами газеты, всегда рассматриваются как "социальная оценка". Газетно-публицистический стиль в период Советов имел ярко выраженные черты, которые были тесно связаны с идеально-культурным контекстом этого периода. Социолингвистическое исследование газетно-публицистического стиля этого периода позволяет увидеть и проанализировать влияние политики того времени на язык и стиль газеты, влияние господствующего русского языка на язык и стиль узбекского языка, а также обогащение газетной лексики за счет новых социально-политических терминов*

*Ключевые слова: социолингвистика, газетно-публицистический стиль, социально-политическая реальность, медиаконтекст, социально-политические термины, язык и стиль узбекской газеты, статья, печатные медиа, газетный текст.*

### NEWSPAPER AND JOURNALISTIC STYLE DURING THE SOVIET PERIOD: SOCIOLINGUISTIC APPROACH

Mukaddas ISRAIL,

*doctor of philological sciences, professor. Uzbekistan State University of World Languages*

*Annotation. According to the results of the study of the historical development of the newspaper language, one of the distinctive aspects of the use of language tools in different periods is their systematic classification, as well as the inclusion of extralinguistic factors. Turning to the diachronic analysis of the newspaper text, we can observe that the standard and expression, which are important aspects of the newspaper, are always considered as a "social assessment". The newspaper and journalistic style during the Soviet period had pronounced features that were closely related to the ideological and cultural context of this period. A sociolinguistic study of the newspaper and journalistic style of this period allows us to see and analyze the influence of politics of that time on the language and style of the newspaper, the influence of the dominant Russian language on the language and style of the Uzbek language, as well as*

*the enrichment of newspaper vocabulary due to new socio-political terms*

**Keywords:** *sociolinguistics, newspaper and journalistic style, socio-political reality, media text, socio-political terms, language and style of the Uzbek newspaper, article, print media, newspaper text.*

KIRISH. O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlarni o‘zida aks ettirgan publitsistikating paydo bo‘lishini insoniyatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi bilan birqalikda o‘rganishni taqozo etadi. O‘zbek publitsistikasining rivoji birinchi gazetalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida bosma publitsistikating paydo bo‘lishi odamlar ongi va xatti-harakatiga, ijtimoiy faoliyatining faollashuviga va siyosiy jarayonlarga munosabatining shakllanishi va ularning ongiga ta’siri beqiyos darajada o‘sdi.

Ta’kidlash lozimki, o‘sha davrda o‘zbek tilining yozuvi bir necha bor o‘zgardi. Dastlabki yillarda o‘zbek tili Arab alifbosidan Fors-Tojik alifbosiga, keyin Lotin alifbosiga va nihoyat 1940-yilda Kirill alifbosiga o‘tkazildi. Bu o‘zgarishlar tilimizning yozma an'analarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Albatta, matbuot tiliga ham.

Tadqiqotimiz doirasida gazeta tilining diaxronik tahlili mustamlaka davrining 1940-1989 yillarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, sobiq SSSRda o‘zbek matbuoti, shuningdek, milliy respublikalarning boshqa tillaridagi matbuot sobiq sho‘ro hokimiyati nazoratida bo‘lib, uning senzurasiga bo‘ysungan.

**METODLAR:** Mazkur maqolada gazeta-publitsistik uslibining sotsiolingvistik aspekti va gazeta tilining shakllanishida lingvistik omillarning o‘rni, tarixiy shakllanish jarayoni, shuningdek, gazeta tilining shakllanishida va taraqqiyotidagi sotsiolingvistik omillar lisoniy-uslubiy, mantiqiy, qiyosiy, content-tahvilga tortilgan.

**NATIJALAR VA MUNOZARA:** Mustamlaka davrida gazeta publitsistikasi tili xususiyatlari borasida quyidagilarni kuzatish mumkin:

Sho’rolar davrida gazeta tili asosan standartlik va ta’sirchanlikka asoslangan bo‘lib, sobiq sho‘ro tuzumi standartlariga javob beradigan kommunistik tadbirlar, sotsialistik iqtisodiyot va boshqalar yoritilgan. Buni quyidagi standart jumlalarda ko‘rish mumkin: “kommunistik mehnat kollektivi”; “kelishmoq”; “qo‘llab-quvatlamoq”; “kengayib bormoq”; “o‘sish suratlari”; boshlang‘ich tashkilot”; “brigda pudrati”; “puxta tanlov”; “zarur vazifa”; muhim vazifalar”; “partiya chaqirig‘i”; “partiya tashkiloti”; “imkon bermoq”; “tinchlik va do‘stlik uchun”; “mehnat zarbdori”; “muhim topshiriq”; “yordam ko‘rsatmoq”; “konkret ishlar”; “odim qadamlar”; “chora ko‘rmoq”; “sabiq chiqarmoq” va h.k.

Shuningdek, o‘sha davr matbuotida:

“Proletariat” – mehnatkash sinf, ayniqsa, fabrika va zavod ishchilari.

“Kommunizm” – klasssiz jamiyat qurish maqsadida barcha mulk umumiylashtiriladigan ideal jamiyat tuzilishi.

“Sotsializm” – ishlab chiqarish vositalarining davlat yoki jamoa tomonidan boshqarilishi asosida qurilgan ijtimoiy va iqtisodiy tuzum.

“Kolxoz” – kollektiv xo‘jalik, dehqonlarning birqalikda yerni ishlashi.

“Sovxozi” – davlat xo‘jaligi, asosan, qishloq xo‘jaligida ishlatilgan.

“Partiya” – siyosiy partiya, ayniqsa Kommunistik partiya kabi tushunchalarni qo‘llash faol bo‘lgan.

“Brigada” – ushbu tushuncha ko‘plab sohalarda ishlatilgan va uning ma’nosi kontekstga qarab farqlangan. Biroq, “brigada” termini kichik guruh yoki jamoa a’zolarini anglatgan, bu guruh muayyan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan.

Davr muhiti bilan va ijtimoiy-siyosiy voqelikni aks ettiruvchi tushunchalar kuzatiladi: “Besh yillik”; “Ishlab chiqarish plani”; “Yillik plan”; “Sotsialistik musobaqa”; “Sovet kishilari”; “Sovet xalqi”; “Mahalliy sovetlar” va h.k.

Masalan, “Zavoda ishlab chiqarish planini o‘z vaqtida bajarilishi ishchilarning ko‘nglini ko‘tarilishi va ularni yanada yangi zafarlarga chorladi”; “Bizning kollektivimiz sotsialistik musobaqa g‘olibi bo‘lish uchun harakat qilishyapti”; “Yetti yillik planni bajarish uchun kurash kuchlarimizni ham qachongidan ham faolroq safarbar qilishni, partianing butun tashkilotchilik va tarbiya ishlarini yanada yuksak darajaga ko‘tarishni talab qiladi” (“Qizil O‘zbekiston”. 03.10.58 ); “Kommunistlar, ishchilar va kolxozchi dehqonlarning siyosiy, madaniy saviyasi beqiyos oshib, ishga, turmushga hayotning barcha sohasiga talabi, munosabati o‘zgarmoqda” (“Qizil O‘zbekiston”. 12.7.55) va h.k.

Organlar nomlari: “SSSR ichki ishlar organlari”; “Davlat xavfsizligi komiteti”; “Sovet Armiysi”;

“Ichki ishlar ministrligi”; “Komitet” va h.k.

O’sha davr siyosiy vaziyatni yorituvchi mavzularda o’sha davr so‘z va so‘z birikmalari va siyosiy leksika qo‘llanilgan:

“Kommunistik partiya”; “komsomol”; “kommunizm”; “Ministrler Soveti”; “Yozuvchilar soyuzi”; “Markaziy Komitet”; “markscha-lenincha dunyoqarash”; “Marksizm – leninizm ideyalari”; “Sotsialistik Mehnat Qahramoni”; “Oliy sovet deputati”; “Brigada boshlig‘i”; “Sovetlar respublikasi”; “Sovet xalqi”; “Plenum”, KPSS delegatsiyasi”; “Oliy Sovet Prezidiumi”; “SSSR Ministrlar Sovetidagi” va h.k.

Gazeta matniga murojaat qilamiz. “Sovet O‘zbekistoni” gazetasida “Buyuk qudratli kuch” sarlavhasi ostida berilgan maqoladan parcha keltiramiz:

“Biz marksizm-leninizm yer yuzidagi yuz millionlab kishilarning fikr-tuyg‘larida hukumron bo‘lib qolgan zamonaviy, eng ilg‘or va hayotning ta’limoti sifatida planetaning hamma qit’alarida keng xalq ommasi ongiga chuqurroq singib, dunyoda eng qudratli moddiy kuchga aylanayotgan davrda yashamoqdamiz. Ulug‘ Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasining g‘oyaviy bayrog‘i bo‘lgan marksizm-leninizm sinfiy va milliy zulmga qarshi, sotsializm va kommunizm g‘alabasi uchun kurashda barcha mamlakatlar mehnatkashlarning yo‘lchi yulduzi bo‘lib qoldi” (“Sovet O‘zbekistoni” 1968. 2.04) va h.k.

Ushbu misolda gazeta publitsistik uslubning asosiy vazifasi marksizm-leninizm g‘oyalarini aks ettirish va ularni omma ongiga singdirish bo‘lgan. Ma’lumki, marksizm-leninizm g‘oyasi – bu siyosiy va iqtisodiy nazariyalar majmui hisoblanadi. Bu nazariya asosan ishchi sinfning kapitalistik tizimga qarshi kurashi va proletariat diktaturasini o‘rnatish g‘oyalariga tayangan va gazetada keng targ‘ib qilinganligi sababli, g‘oyaviy bayrog‘; milliy zulmga qarshi; mehnatkashlarning yo‘lchi yulduzi kabi ekspressiv vositalar orqali matn axborotning ta’sirchanligiga erishilgan.

Ko‘rib turganimizdek, o’sha davr o‘zbek jurnalistikasi sobiq sho‘rolar davrida respublikaning ijtimoiy ongi va mafkurasini shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Shu nuqtayi nazardan, bir nechta asosiy jihatlarni ajratib ko‘rsatish mumkinki, ular quyidagilardan iborat:

Sobiq sho‘ro davrida o‘zbek jurnalistikasi kommunizm mafkurasi va sotsializm qurilishiga qat’iy yo‘naltirilgan edi. Publitsistlar kommunistik g‘oyalarni faol targ‘ib qilar edilar, sobiq sho‘ro tuzumining afzalliklari va kommunizmning O‘zbekiston jamiyatiga ta’sirini ochib berar edilar:

“Sovet matbuotining ishi keng ishchilar, kolxozchilar va intelligentlar ommasining aktiv ishtirok qilishiga asoslanadi”; “Xalqimizning madaniy saviyasi tobora o‘smoqda. Oblastimizning zavod, fabrika, kolxoz, sovxozi va MTS larida juda ko‘p devoriy gazeta, “Jangovar varaqa”, satira varaqlari chiqarilib turmoqda” (“Sovet O‘zbekistoni”. 1950-1954).

Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qo‘llanilishi davr talabi bo‘lib, bu mafkuraviy vazifani bajargan. Deyarli har bir materialda bu holatni kuzatish mumkin: KPSS Markaziy Komiteti rayon va shahar gazetalariga bevosa rahbarlik qilishga .... shahar va rayon partiya komitetlari birinchi sekretarlarining zimmasiga yuklangan” (“Sovet O‘zbekistoni”. 1950-54); “Hozir Sovet Ittifoqi yakka emas. U bilan bir qatorda internasionalizmining bayrog‘i ostida 1-May kuni ulug‘...”; “Buning natijasida to‘rt mamlakat tashqi ishlar ministrlarining Berlin kengashi chaqirildi” (“Sovet O‘zbekistoni”. 30.11.1990) va h.k.

Shuning bilan birga qisqartmalarining faollashuvi kuzatiladi. Bu qisqartmalar ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan bog‘liq edi: “RSDRP(b)”; “RKP(b)”; “VKP(b)”; “VLKSM”, “KPSS”, “SSSR”, “O‘zTAG” va h.k.

Shunisi e’tiborga loyiq-ki, bu qisqartmalar asosan, rus tushunchalarini o‘z ichiga olgan va o‘zbek tilida qisqartmalar rus tilida qanday bo‘lsa, shundayligicha qo‘llanilgan. Masalan, “SSSR” abbreviaturasi rus tilidagi to‘liq ma’nosi “Союз Советских Социалистических Республик” bo‘lib, o‘zbek tilida “Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi” deb yuritilgan hamda Sovet Ittifoqi davlatining rasmiy nomi sifatida qo‘llanilgan.

“VLKSM” abbreviaturasi rus tilida to‘liq “Всесоюзный Ленинский Коммунистический Союз Молодёжи” tushunchasining qisqartmasi bo‘lib, o‘zbekchaga tarjima qilinganda “Butunitifoq Leninchi Kommunistik Yoshlar Ittifoqi” degan ma’noni anglatadi. Davrning mafkuraviy ta’siri natijasida VLKSM a’zolari yoshlar orasida kommunistik ideologiyani targ‘ib qilish, o‘z a’zolarini mehnat va mudofaa tayyorgarligiga jalb qilish, shuningdek, madaniy va ilmiy faoliyatlarga ko‘maklashish kabi vazifalarni bajargan. Ular shuningdek, yoshlarni siyosiy tarbiyalashda muhim rol o‘ynagan va Kommunistik Partiya bilan yaqin hamkorlik qilgan.

“KPSS” qisqartmasi “Sovet Ittifoqi kommunistik partiyasi”ning qisqartmasi bo‘lib, Sovet Sotsialistik Ittifoqi Respublikalarining yetakchi va yagona siyosiy partiyani anglatgan. Bu partiya Sovet Ittifoqi tarixida muhim rol o‘ynagan va davlat hamda jamiyat hayotiga keng ta’sir ko‘rsatgan. KPSS, Sovet

Ittifoqi davrida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotni boshqaruvchi asosiy kuch bo‘lib, partianing siyosiy qarorlari va yo‘nalishlari mamlakatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatgan.

“Delegatsiya” termini (“delegatio”) lotin tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ma’nosи muayyan vazifa yoki maqsad bilan bir guruh odamlarning biror tadbiriga yoki muzokaralarga yuborilishidir. “Delegatsiya” tushunchasi ma’lum bir vazifani bajarish yoki muayyan muzokaralarda qatnashish uchun rasmiy ravishda tanlab olingan shaxslar guruhini bildiradi. Sovet Ittifoqi davrida “KPSS delegatsiyasi” mamlakat ichida va xalqaro maydonda partiya va davlat manfaatlarini ifoda etuvchi muhim tushuncha sifatida qaralgan hamda delegatlar muhim siyosiy qarorlarni muhokama qilish, ittifoqchilar bilan aloqalarni mustahkamlash va Sovet Ittifoqining mavqeini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

“Ministrlar Soveti” tushunchasi, asosan, hukumatning yuqori ijroiya organini anglatib, o‘sha davrda bu organ davlatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirish uchun mas’ul bo‘lgan vazirlar va boshqa yuqori martabali tashkilotlardan iborat bo‘lgan. Ushbu tushuncha mamlakatning ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda asosiy rol o‘ynagan. Bu jumladan iqtisodiyot, mudofaa, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarga oid qarorlarni qabul qilishni o‘z ichiga olganligi sababli ijtimoiy-siyosiy termin sifatida qo‘llanilishi faol bo‘lgan.

“Sovet” termini siyosiy termin sifatida o‘zbek tiliga rus tilidan kirib kelgan bo‘lib, “maslahat” yoki “kengash” ma’nosini bildiradi. Umuman olganda, ushbu tushuncha maslahatlashuv yoki bir guruh odamlarning muayyan masalalar yuzasidan muhokama qilish jarayonini anglatadi. Bu termin o‘sha davrda yangi siyosiy va ijtimoiy ma’no kasb etgan muhokama va qaror qabul qilish organlarini anglatgan. Shuningdek, sovetlar davrida bu muhim madaniy va tarixiy konnotasiyalarga ega bo‘lgan. Rus tilida ushbu leksika endilikda faqat maslahat yoki kengash ma’nosini emas, balki ma’lum bir siyosiy tuzum va uning ijtimoiy tuzilmasini ham anglatadi.

Ta’kidlash lozimki, ushbu tushunchalar ma’lum bir tarixiy davr va ijtimoiy tuzum bilan bog‘liq ma’no va konnotasiyalarni o‘zida mujassam etgan. Ularning gazeta tilida qo‘llanilishi jamiyatning hayoti, tarixiy va madaniy evolyutsiyasi hamda jamiyatdagi roli va ahamiyatini ko‘rsatadi.

Rus tilida: “Советский народ”; “Совета Министров СССР”; “Верховного Совета СССР”; “Центральный Комитет партии”; “Отечественный народный фронт”; “Коммунистический союз молодёжи”; “XXIV съезд КПСС”; “Центральный комитет ВЛКСМ”; “Комитет одобрил позисию правительства va h.k.

Sovet hukumati ma’lum bir ideologik maqsadlarga erishish uchun til islohotlarini amalga oshirdi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bu islohotlar doirasida o‘zbek tilining lug‘at boyligi va grammatikasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Rus tilidan o‘zlashmalar soni ortishiga va yangi tushunchalarni va so‘zlar hisobiga o‘zbek tili leksikasini boyib bordi: “leksiya”; “direktor”; “prinsip”; “rayon”; “miting”; “oblstan”; “plan”; “konferensiya”; “texnika”, “Mashina”, “reaktor”; “Teleskop”; “Antenna”; “kolxoz”; “savxozi”; “Rejissyor”; “Komsomol”; “Kran”; “Avtobus”, “seyalka”, “agrotexnika”, “imperializm”, “kosmik fazo”, “quyosh sistemasi”, “sovet fani va texnikasi”, “astronomiya”, “observatoriya”, “fotografik astrometriya”, “laboratoriya”, “fanlar kandidati” va h.k.

XULOSA. Ko‘rib turganimizdek, 1940-1988-yillar oraliq‘ida O‘zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan, shu sababli bu davrda rus tilidan o‘zbek tiliga ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. Yangi tushuncha va hodisalarni ifodalashda asosan rus tilining ta’siri katta bo‘lgan hamda asosan siyosiy, ilmiy, texnik, madaniy va ijtimoiy va h.k. sohalarning rivoji bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu holat o‘zbek tilining leksik tarkibini kengayishiga sabab bo‘lgan.

Tahlillar natijasida o‘sha davrda gazeta maqolalari, ocherklar va boshqa publitsistik asarlarda sotsializm va kommunizm g‘oyalari, shuningdek, sotsialistik qadriyatlar madh etilganini kuzatish mumkin: “Sovet xalqining traditsiyalari!” sarlavhasi ostida e’lon qilingan maqolada bu holatni kuzatish mumkin: “Sovet xalqining yangi traditsiyalari ham milliy, ham internatsional xarakterga ega. Sotsialistik traditsiyalar xalqimizning milliy mulki bo‘lib qoldi” (“Sovet O‘zbekistoni” 01.07.64). Ko‘rib turganimizdek, maqolada tradisiya, internosional, xarakter kabi o‘sha davr o‘zlashmalari ishlataligian.

Shu bilan birga gazeta matnida ta’sirchan vositalardan qo‘llash va ommaga ta’sir etish davr talabi sifatida qaralgan. “Zo‘rovonlik pozitsiyasi!” (sarlavha). “Siyosiy urush yoqasiga olib borib qo‘yish siyosati ketma-ket barbod bo‘lmoqda. Lekin G‘arbdagi ba’zi kishilar bundan tegishli saboq chiqarib olmayotir”; “Vatanparvar oqsoqolimiz har doim gapirib kelgan va turmushga oshirish uchun kurashgan...”;

“Shaharlar yuzida dog‘ qolmasin...”; “Do‘stlik diydori...” (“Qizil O‘zbekiston”. 11.06.56) va h.k.

Publitsistlar ommanning hissiyotlariga ta’sir qilish maqsadida turli til birliklarini qo‘llashgan va asosan undov, murojaatlardan foydalanishgan: “Minnatdormiz o‘zbeklar!”; “Tinchlikda va do‘stlikda yashaylik!” va h.k.

O‘zbek matbuoti sobiq SSSRning rasmiy tilidan, ya’ni rus tilida chop etilgan. O‘zbekistonda chop etilgan rus tilidagi gazetalar, o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini yoritgan. Gazetalar nafaqat mahalliy aholi orasida, ya’ni o‘zbek va rus millatiga mansub kishilar orasida ham ommabop bo‘lgan. Ularning tili va uslubi o‘zbek gazetalari kabi o‘sha davrning ideologiyasi va madaniyatini aks ettirgan. Buni gazeta sarlavhalaridan ham kuzatish mumkin: “Первоочередная партийная задача!”; “Октябрьское воскресение народов”; “Водный транспорт должен победить”; “О партийном хозяйстве и задачах парторганизации Узбекистана. Доклад тов. Цехера на ИВ пленуме СККП(б)Уз”; “Наведем большевистский порядок в партийном хозяйстве” (“Правда Востока”. 1935-1940).

Shunday qilib, mustamlaka davrida o‘zbek gazeta-publitsistikasi asosan, davlat va partianing siyosiy va mafkuraviy maqsadlariga xizmat qilgan. Sho’ro davlati va jamiyatining yutuqlari, mehnat qahramonlari, fan va madaniyat namoyandalari haqida ko‘p yozilgan. Bunda ularning sa‘y-harakatlari sotsialistik ideallarga mos kelishi masalalari chop etilgan. Shunga qaramay, shuni ta’kidlash kerakki, sobiq sho’ro rejimi sobiq O‘zbekiston SSRning rasmiy mafkurasi va siyosatiga muvofiqligini ta’minalash uchun o‘zbek gazetalarida e’lon qilingan kontent va axborotni qat’iy nazorat qilganligi gazeta tiliga o‘z ta’sirini ko‘rsatganligini ko‘rshimiz mumkin.

Shunday qilib, o‘sha davrdagi o‘zbek gazetasi publitsistikasi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

- Partiyaviylik. Kommunistik partianing faoliyati, jamiyatdagi mavqeini oshirish, ommada jangovar kurashuvchilikni shakllantirish, marksizm-leninizm g‘oyalarini singdirish, xalqlar do‘stligi, proletariat g‘oyalarini targ‘ib qilish;
- Xalqchillik. Xalq intilishlarini, orzu-umidlarini, milliy dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;
- Kurashuvchanlik. Har qanday yovuz kuchlar bilan ayovsiz kurashuvchanligi, yangilikni, jamiyat hayotidagi kommunistik fazilatlarni ulug‘lanishi, kommunizmni barpo etishga chaqiriqlar va h.k.

Shunday qilib, Oktyabr sotsialistik inqilobidan keyin vaqtli matbuotning turli tarmoqlari keng e’tibor o‘zbek sovet matbuotining vujudga kelishi va taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Davr talabidan kelib chiqib, gazetalarning asosiy vazifalari sotsialistik jamiyat hayotida ro‘y berayotgan voqealar bilan bog‘liq holda xalqning qahramonligi, uning yaratuvchiligin yoritish gazeta publitsistikasinnng ham asosiy va muhim belgisi sifatida qaralgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliqulov Z., Boymirzaeva S. Sotsiolingvistika. Ma’ruzalar matni. – Samarqand: SamDU, 2009. – 102 б.
2. Абдуллаев Ю., Бушуй А. М. Язык и общество. – Т.: Фан, 2002. – 373 с.
3. Абдусаидов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Фил. фан. д-ри. ... дисс. – Т.: 2005. - 291 б.
4. Бакиева Г. Х., Тешабаева Д. М., Медиамаконда матн. Монография. –Т.: Turon-Iqbol, 2019. – 179 б.
5. Виноградов С. И. Язык газеты в аспекте культуры речи. Культура русской речи и эффективность общения. – М., 1996. – 317 с.
6. Клушина Н. И. Стилистика публицистического текста. – М., 2008. – 311 с.
7. Никольский Л. Б. Синхронная социолингвистика. – М.: Наука, 1976. – 168 с.
8. Тешабаева Д. М., Бакиева Г. Х., Исраил М. И. Медиалингвистика ва таҳrir маҳорати. – Тошкент, 2019. – 449 б.
9. Тешабаева Д. М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 2012.– 330 б.
10. Усманова Ш. Б. Медиадискурсда газета тили тенденциялари (ўзбек ва инглиз тиллари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... дисс. – Тошкент, 2021. – 149 б.
- 11.Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Тафаккур, 2011. – 286 б.
9. Шамақсудова С. Х. Медиаматнларнинг тили, услуби ва жанрий хусусиятлари. Филол.фан.